

## MUSTAQILLIK YILLARIDA IJTIMOYIY SOHADA XOTIN- QIZLARNING O'RNI

**Eshboyeva Gulsanam**

Termiz davlat universiteti Tarix fakulteti

4-bosqich talabasi

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada qadimgi davrdan ayollarimizning davlat va jamiyatda tutgan o'rni va roli haqida yoritib beriladi. Bundan tashqari mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng xotin-qizlarning ijtimoiy sohada olib borgan bir qator yangilik va islohotlari haqida bilib olasiz.*

***Kalit so'zlar:** xotin-qizlar, farmonlar, ijtimoiy hayot, islohotlar, mustaqillik, jamiyatda faol ayollar*

Bizga tarixdan ma'lumki biror bir davlatning rivojlanishi va yuksak darajaga chiqishida albatta shu davlatda istiqomat qiladigan ayollarning ham ma'lum darajada ta'siri bo'ladi. Qadimgi davrdan bizga tanish bo'lgan To'maris, Bibixonim, Uvaysiy, Nodirabegim, Zebo G'aniyeva, Qurbonjon dodhoh kabi ayollarimizning jasratlari bizga yaxshi tanishdir.

To'marisning ko'rsatgan jasoratini mashhur yunon tarixchisi Gerodot ham o'zining "Tarix" nomli asarida yozib qoldirgan. Undan hozirgi kunda ham faxrlanib, katta imkoniyatlar va yangilanishlar qilayotgan ayollarimiz talaygina. Davlatimiz mustaqillikka erishgunga qadar xotin-qizlarga yaratilgan imkoniyat va qulayliklar deyarli bo'lmagan. Hatto ayollarning ta'lim olishiga ham qarshiliklar bo'lgan. Lekin bizning mard va jasur ayollarimiz barcha qarshiliklar va qiyinchiliklarga qaramasdan Vatanimiz ozodligi yo'lida harakat qilganlar.

Yana bir guruh ayollarimiz esa davlat hokimiyati tepasiga kelmagan bo'lsa ham, farzandlari yoki turmush o'rtog'i orqali mamlakat rivojida sezilarli o'rin tutgan. Bunga misol qilib, 12 yoshida mamlakatni boshqargan Mirzo Ulug'bekning onasini aytishimiz mumkin. Sababi juda yosh bo'lgan Ulug'bek Mirzo davlat ishlarida har doim onasining tavsiyalariga amal qilgan va shunga qarab ish yuritgan. Qutlug' Nigorxonimning maslahat va tavsiyalari mamlakatning boshqaruvida yordam bergan.

Yurtimiz mustaqillikka erishgandan so'ng xotin-qizlarning jamiyatimizda ishtiroki va faoliyati yanada kengaydi. Bunga sabab esa Muhtaram birinchi prezidentimiz Islom Karimovning davlatimizda yuritgan oqilona siyosatlaridir. Mamlakatimizda xotin-qizlarga yaratilgan imkoniyat va qulayliklar kundan kunga yaxshilanib bormoqda. Xususan, ayollarni ijtimoiy-siyosiy sohalarga kengroq jalb qilish, huquq-manfaatlarini himoya qilinishini ta'minlash, onalar va bolalarni sog'ligini saqlash va ularning faoliyatlarini qo'llab-quvvatlash. Oila institutini tobora kengaytirish va mustahkamlash yo'lida keng qamrovli ishlar shular jumlasidandir.

2018- yil 2-fevralda mamlakatimizda Respublikamiz Prezidentining "Xotin-qizlarni qo'llab quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora- tadbirlari"<sup>1</sup> to'g'risidagi PF-5325-sonli farmoni mamlakatimiz ayollariga yana bir yangi davrni ochib berdi desak xato bo'lmaydi.

Bu farmondan so'ng mamlakatimiz ayollarining ijtimoiy sohada faolligi yana ham ortdi. Shundan so'ng davlatimiz rahbari shu yilning o'zida 8-mart "Xalqaro xotin-qizlar kuni" - bayrami munosabati bilan uchrashuv tashkil etdilar va unda nutq so'zladilar.

"O'zbekiston deb atalgan jonajon Vatanimizda har qaysi mard yigit, avvalo, mehribon onasi, oilasi, farzandlari baxtli bo'lishini istaydi, albatta. Hazrat Alisher Navoiy aytganlaridek, bu yo'lda o'zining butun borlig'ini bag'ishlashga tayyor turadi"<sup>2</sup>. Haqiqatdan ham shunday. O'zbek ayollari bugungi jamiyatda o'zining sog'ligi haqida ham o'ylamasdan Vatanimiz rivoji yo'lida erkaklarimiz bilan bir safda

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2-fevraldagi PF-5325-sonli farmoni

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 8- mart uchrashuvidan nutqi

dadil qadam tashlamoqda. Ayollarimizning bu boradagi harakatlarini yanada rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash uchun mamlakatimizda "Mo'tabar ayol" ko'krak nishoni ham ta'sis etilgan.

Yulchiyeva Dildora Xabibullayevna ma'lumotlariga ko'ra hozirgi kunga kelib yurtimizda turli sohalarda xizmat qilayotgan xotin-qizlar umumiy ishchi va xizmatchilarning 45% ni tashkil qilmoqda. Davlat va jamoat tashkilotlari tizimida 1400 ga yaqin ayollar rahbarlik lavozimida ishlab kelmoqda. Shulardan 17 nafari senator, 16 nafari Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati, 1075 nafari esa xalq deputatlari mahalliy kengashlarida faoliyat yuritib kelmoqda.

Bundan tashqari mamlakatimizda qizlarimiz uchun alohida klublar tashkil qilinib, ularning bo'sh vaqtlarini qiziqarli va mazmunli o'tqazish ham yo'lga qo'yilgan. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, xotin-qizlarning faoliyati yo'lga qo'yilmagan biror bir soha qolmadi. Buni biz xalqimizning xotin-qizlarga yaratgan imkoniyatlari deb qabul qilishimiz va Vatanimiz rivoji uchun bor kuch va bilimimizni ayamashimiz kerak. Bu yo'lda Yangi O'zbekiston ayollarining ham ishtirokini kengroq ta'minlashimiz va ijtimoiy hayotni yanada yaxshilashga hissa qo'shishimiz darkor.